O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SIRDARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko‘chasi, 7-uy, Tel/Faks: 71-203-11-08, E-mail: sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Otajonov Mansurjon Ma’rufjon O‘g‘li
Sana: 15-08-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

255036 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar Yashnaobod tumani Farg‘ona yo‘li ko‘chasi 15-uy o‘z yer uchastkasida yer osti avtoturargohi, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi bo‘lgan ko‘p xonadonli turar joy binolarini qurish	
Buyurtmachi:	VINDER INVEST MCHJ
Bosh loyihachi:	"CITY ART PROJECT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender savdolari orqali aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	081779

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 2-iyuldagi Obyektni ixtisosini o‘zgartirish va rekonstruksiya qilishga 129892299-sonli ruxsatnoma.

1.2. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshiriqnomasi. /2025-yil/

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 21-avgustdagi 1726-1726290-197139-sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. “Poydevorloyiha” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2024-yildagi muhandislik-geologiya sharoitlari hisoboti.

1.5. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti o‘rtasidagi 2025-yil 19-fevraldagi 06/25-01-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiga ko‘ra “Toshkent shahar Yashnaobod tumani Farg‘ona yo‘li ko‘chasi 15-uy o‘z yer uchastkasida yer osti avtoturargohi, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi bo‘lgan ko‘p xonadonli turar joy binolarini qurish” obyektining elektron shaklda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari va loyiha oldi hujjatlari.

1.03.01-16 sonli ShNQ talablariga asosan ishlangan ishchi loyihasi quyidagi tarkibda:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.
- Smeta hujjatlari.
- Qurish ishlarini tashkillashtirish loyihasi.
- Turar joy binosining AE, IV, YoS, EYo, TF, VK- bo‘limlari bo‘yicha ishchi chizmalar.
- GP, tashqi muhandislik tarmoqlar, yordamchi bino va inshootlar bo‘yicha chizmalar.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Obyekt joylashgan tuman tavsifi.

Tashqi havoning qishki hisobiy harorati - -14˚C.

Me’yoriy qor tushish bosimi S=0,5 KPa (50 kgs/m^2) (KMK 2.01.07-96)

Me’yoriy shamol tezligi bosimi W=0,38 KPa (38 kgs/m2) (KMK 2.01.07-96)

Hududning hisobiy zilzilaviyligi - 9 ball.

Tuproqning muzlash sathi - 0.70 m.

Olovbardoshlik darajasi - II.

Konstruktiv yong‘in xavfi sinfi - C0.

Binolarning funksional yong‘in xavfi bo‘yicha tasnifi - F1.3.

Inshootning javobgarlik sinfi va darajasi - II normal.

Bino (inshoot) ning portlash va yong‘in xavfi bo‘yicha toifasi - D.

Qurilish konstruksiyalarining yong‘in xavfi sinfi - KO.

3.2. Bosh reja qaydnomasi. (GP).

1. Turar joy (loyihalashtirilayotgan)
2. Yer osti avtoturargohiga kirish (loyihalashtirilgan)
3. Bolalar maydonchasi (loyihalashtirilgan)
4. Shiypon (loyihalashtirilgan)
5. Transformator podstansiyasi (loyihalashtirilayotgan)
6. Chiqindixona (loyihalashtirilgan)
7. Avtoturargoh (loyihalashtirilgan)
8. 12 qavatli turar-joy binosi (mavjud)
9. 2-qavatli turar-joy binosi (mavjud)

3.3. Hudud maydoni chegaralari. (GP).

Shimol tomondan - Farg‘ona yo‘li ko‘chasi bilan chegaralangan.

Janub tomondan - Omborxona binolari bilan chegaralangan.

Sharq tomondan - Qurilish maydoni bilan chegaralangan.

G‘arb tomondan - Ko‘p kvartirali turar joy binolari bilan chegaralangan.

3.4. Bosh reja hudud balansi. (GP).	*m2*	*%*
Hududning umumiy maydoni	0,5250	100
Avtomobil yo‘llari maydoni	0,1580	30,09
Trotuar va boshqalar maydoni	0,0901	17,17
Ko‘kalamzorlashtirish maydoni	0,1457	27,75
Bino va inshootlar maydoni	0,1312	24,99

3.5. Arxitektura yechimi. (Blok-A-B. AR).

Loyihalashtirilayotgan ko‘p qavatli 12-qavatli turar-joy binosi “G” shaklida A va B bloklardan, ikki qavatli yer osti to‘xtash joylaridan iborat.

Blok-A binosi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklli bino bo‘lib, o‘qlarining o‘lchamlari (5-14) 52,80 x (A-Ye) 15,20 metrni tashkil etadi.

Birinchi qavatning poldan shiftgacha bo‘lgan balandligi h=4,20 metr. Barcha 2-12 qavatlar balandligi h=3,02 metrdan. Qavatlar o‘rtasidagi harakatlanish ikkita zinapoya katagi va yuk

ko‘tarish qobiliyatiga ega 630 kg va 1000 kg bo‘lgan yo‘lovchi liftlari yordamida amalga oshiriladi.
Blok-B binosi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklli bino bo‘lib, o‘qlarining o‘lchamlari (A-K) 24,80 x (1-4) 16,0 metrni tashkil etiladi.
Birinchi qavatning poldan shiftgacha bo‘lgan balandligi h=4,20 metr. Barcha 2-12 qavatlar balandligi h=3,02 metrdan. Qavatlar o‘rtasidagi harakatlanish ikkita zinapoya katagi va yuk ko‘tarish qobiliyatiga ega 630 kg va 1000 kg bo‘lgan yo‘lovchi liftlari yordamida amalga oshiriladi.
Blok-B binoning 1-qavatida savdo zallari joylashgan. Qolgan qavatlarda bir, ikki va uch xonali honadonlar joylashgan.
Blok-A. Bir qavatdagi xonadonlarning umumiy maydoni – 624.00/588.42 m2
11 qavatga – 6864.00/6472.62m2
Yo‘lakli bir qavatning umumiy maydoni – 759.87/724.29 m2
11 qavatda – 8358.57/7967.19 m2
1-qavatning umumiy maydoni (savdo zallari) – 751.74 m2
Umumiy bino maydoni – 9110.31/8718.93 m2
Blok-B. Bir qavatdagi xonadonlarning umumiy maydoni – 324,8/309,62 m2 1
1 qavatda – 3572,80/3405.82 m2
Yo‘lakli bitta qavatning umumiy maydoni – 371.66/ 356.48 m2
11 qavatga – 4088.26/3921.28 m2
1-qavatning umumiy maydoni (savdo zallari) – 369.49 m2
binoning umumiy maydoni – 4457.75/4290.77 m2
3.6. Texnik iqtisodiy ko‘rsatgichlari. (Blok-A-B. AR. TEP). Blok-A-B.
1. Qurilish maydoni - 2763,74 m2
2. Binoning umumiy maydoni - 17825,92 m2
3. Yer osti qismi - 5349,00 m2
4. Yer usti qismi - 12476.92 m2
5. Qurilish hajmi - 70954,80 m3
6. Yer osti qismi - 19228,22 m3
7. Yer usti qismi - 51726,58 m3
8. Ulardan A bloki - 34293,09 m3
9. Ulardan B bloki - 17433,49 m3
3.7. Tashqi va ichki pardozlash. (Blok-A-B. AR).
Tashqi devorlar qalinligi 300 mm bo‘lgan penoblokdan yasalgan.
To‘siqlar 120 mm qalinlikdagi g‘isht va 200 mm qalinlikdagi penoblokdan iborat.
Ustunlar temir-betondan.
Tom yopmasi - ekspluatatsiya qilinadigan, gidroizolyatsiya bo‘yicha keramik plitkalardan tayyorlangan.
Issiqlik izolyatsiyasi - Penopleks plitalari.
Suv quvurlari - Ichki, uyushgan.
Tashqi devorlar suvalgan va metall karkas bo‘ylab sun’iy toshlar bilan qoplangan.
Poydevor qismi ital granit plitalari bilan qoplangan.
Bino fasadining perimetri bo‘ylab metall karkas bo‘ylab sun’iy toshlar bilan qoplangan karniz loyihalashtirilgan.
Ichki pardozlash - Yaxshilangan suv asosli bo‘yoqli suvoq va sanitariya tugunlarida sirlangan keramik plitkalar bilan qoplash.

Xonalardagi pollar - Keramik plitkalar, keramogranit polni izolyatsiya qilish uchun Penopleks plitalari qo‘llanilgan.

3.8. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yechim. (Blok-A-B. AR. NBSH).

Mazkur ko‘p qvatli turar-joy binosi loyihasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-266-son qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturining tashkilotlarga qarashli binolarga kirish va chiqish, fuqarolarni qabul qilish joylari hamda sanitariya-gigiena shaxobchalarini nogironligi bo‘lgan shaxslarning erkin foydalanishi uchun moslashtirish talablari hamda SHNQ 2.07.02-24 talablari bajarilgan. Buyutrmachi “Vinder Invest” MChJning 2025-yil 12-avgustdagi №12-08/2025-sonli xatida barcha talablar bajarilishi kafolatlangan. Bajarilmagan boshqa talablar va ish turlari bo‘yicha buyurtmachi va loyihachi javobgar. “Nogironligi bo‘lgan shaxslar” uchun qurilmalar va jixozlarini o‘rnatish, qurilish jarayonida buyurtmachi va quruvchi o‘rtasida aniqlanadi. Barcha talablar bajarilishini ta’minlash va javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda buyurtmachi ijobiy xulosani qabul qilishi bilan unga yuklanadi.

3.8. Turar joy binosi. Konstruksiya qismi.

Loyihalanayotgan bino 12 qavatli bo‘lib, rejadagi o‘lchamlari 46,45×18,4 metrni tashkil etadi.

Parkovka. Yer osti qismining rejadagi o‘lchamlari 76,1×38,3 m ("A blok - 53,3×15,7 m, B blok - 16,5×25,3 m. Blok-V - yer osti avtoturargohi. Bino karkasli turga mansub va yer osti avtoturargohini o‘z ichiga oladi.

Binoga ta’sir etuvchi kuchlarni qabul qiluvchi yuk ko‘taruvchi konstruksiyalar sifatida vertikal ekspluatatsion seysmik (yoki shamol) barcha ustunlar, qattiqlik diafragmalari yuklamalardan foydalaniladi.

Yuk ko‘taruvchi ustunlarga ta’sir etuvchi yuklarni bir tekisda qavatlararo yopmalar, rigellar va devorlar orqali uzatish amalga oshiriladi.

Binoning yuk ko‘taruvchi konstruksiyalari ostidagi poydevorlar - monolit poydevor plitalari qalinligi 1600 mm.

Sulfatga chidamli sement asosidagi B25 sinfli beton.

Poydevor plitalari ostiga B10 sinfli betondan 0,1 m qalinlikda beton tayyorlash amalga oshiriladi.

Ustunlarning kesimi 500×500mm, 500x800mm va 500×1000mm B25sinfli betondan tayyorlangan.

Barcha ichki va tashqi devorlar gazobloklardan loyihalangan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Suv va oqova suv ta’minoti.

Suv ta`minoti xo‘jalik-ichimlik hamda o‘t o‘chirish maqsadlarda loyihalandi. Talab etilgan suv sarfi -250m3.ni tashkil etadi.

Sovuq va issiq suv ta'minoti: Sovuq suv tizimlari binoga kirishda po‘lat quvurlardan, bino ichkarisida dn=20 -25 mm PPR PN16 polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan. Issiq suv tizimi PPR PN16 dn=20-25 mm polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan.Issiq suv har bir xonadondagi ikki konturli isitish qozani orqali iste’molchiga yetkaziladi. Loyiha doirasida bino yerto‘la qismida nasos xonasi ko‘zda tutilgan va unda 2 ta (1-ishchi,1-zaxira) Q=12m3/soat, H=60m, N=5,5 kVt nasoslar jamlanmasi loyihalashtirilgan. Maxsus chuqurchada oqova suvlarni chiqarish uchun suv ko‘tarish darajasiga qarab ishlovchi GNOM 10/10. N=0.75kVt nasos loyihalandi. Suv sarfi hisobini olib borish maqsadida xar bir xonadonga dn=20mm bo‘lgan “Smart Safety” suv hisoblagichlari o‘rnatiladi.

Yong`inga qarshi suv ta`minoti: V2 -tizimlari dn=60-88-114mm o'lchamdagi elektr payvandlangan po'lat quvurlardan ishlab chiqilgan. Ichki yong'inni o'chirish 50 mm diametrli purkagich va shlang uzunligi 20 metr bo‘lgan yong'in gidrantlari orqali amalga oshiriladi. Har bir yong'in kabinasi ikki dona o‘t o‘chirish moslamasi bilan jihozlangan. Yong`inga qarshi suv sarfi har bir nuqtada 2 x2,6 l/sek. Yong`in vaqtida bosimni oshirish uchun APT uchun o‘rnatilgan nasoslardan foydalanailadi.
Ichki oqova suv tarmoqlari: Oqova suv quvurlari tashqi tarmoq quduqlariga qarab nishab bilan loyihalangan. Oqova suv tarmoqlari dn=50mm, dn=100mm, dn=160mm polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan.
Sanitariya-texnik jixozlar: san-uzellarda qo’l yuvish uskunasi, unitaz, vanna va osh xonada idish yuvish qozonlari (moyka) joylashtirilgan.
Tashqi ichimlik va oqova suvi tarmog’i: Suv ta`minoti Farg`ona yo‘li ko‘chasidagi D=1000 mm.li tarmoqdan, mavjud quduqda dn=160mm polietilen quvur bilan ulanadi. Tarmoqdagi bosim Hm-1.0atm. Nazorat ishlarini olib borish uchun yig`ma temir-beton quduqlar o‘rnatilgan. O‘t o‘chirish choralari sifatida suv quduqlariga o‘rnatilgan yong`in gidrantlaridan foydalaniladi. Oqova suv tarmoqlari dn=160mm bo‘lgan ikki qatlamli gofra polietilen quvur bilan loyihalashtirilgan. Kanalizatsiya quduqlari dn-1000mm yig`ma temir-beton. Binodan chiqgan oqova suvlar shahr oqova suv tarmoqlariga ulanadi.
4.2. Elektr ta’minoti.
Elektrotexnik qism quyidagi hujjatlarga asosan ishlab chiqilgan:
PUE-2011 (Elektr qurilmalari qoidalari), KMK 2.04.17-19 (Qurilish me’yorlari va qoidalari). Ushbu chizmalar to‘plami orqali quyidagi muammolar hal qilingan: Obyektning elektr tarmog‘i va elektr yoritish tizimi.
Asosiy texnik ko‘rsatkichlar:
Tarmoq kuchlanishi: 380/220 V
Elektr ta’minoti kategoriyasi: II
O‘rnatilgan quvvat: 610,6 kVt
Hisoblangan quvvat: 494,2 kVt
Hisoblangan tok: 837,6 A
Quvvat omili: cosφ = 0.9
Elektr ta’minoti tizimi:
Tashqi tarmoqlardan kiritish kabel orqali amalga oshiriladi.
Kirish taqsimlovchi qurilmalar: VRU-1, VRU-2, VRU-3 (VRU1-13-10 UX.L4) — bular elektr taqsimlovchi xonada joylashgan.
Boshqa barcha elektr panellar energiyani VRU-1, 2, 3 dan oladi.
Kabel va simlar:
Magistral tarmoqlar mis kabellar (VVGNGLS-660) orqali amalga oshiriladi, kesimlari:
5x4 mm² dan 1x150 mm² gacha, yotqizilishi: pol osti, yer osti (PVX trubkada) yoki kabel shaxtalarida (ba’zi joylarda trubkasiz).
Guruhli tarmoqlar ham mis kabellar (VVGNGLS-660):
2x1,5 mm², 3x1,5 mm², 3x2,5 mm² — devor shtrabasida, suvog‘ ostida, shift ostida 16 mm gofrotrubkada yotqiziladi.
Kir yuvish mashinasi va maishiy konditsionerlar uchun alohida chiziqlar (3x2,5 mm²) ko‘zda tutilgan.
Yoritish va avtomatika: LED chiroqlar: Led-18/24/42W — kirishlar, zinapoyalar va koridorlar uchun. Yoritish panellari: Koridorlar uchun – ЩО (ЩRv-24(z) UXL3 IP31), devorga 1,5 m balandlikda. Har bir 2–12-qavatlar uchun – ЩЕ1-3204 UXL3 (etajli panellar), 1,2 m balandlikda.

Hisoblagichlar: Har bir kvartira uchun alohida, ko‘p funksiyali ko‘p tarifli elektron hisoblagichlar (EX-18). Savdo majmualari va umumiy maydonlar uchun – EX-518 turdagi, uch fazali hisoblagichlar. Hisoblagichlar joylashuvi: kvartiralarda – etajli panellarda, umumiy foydalanishdagi joylarda – hisob panellarida. Elektr nuqtalari (rozetkalar, o‘chirgichlar):
Rozetkalar balandligi: Oshxona: 1,2 m Konditsionerlar: 2,2 m Xonalar: 0,4 m O‘chirgichlar balandligi: Xonalar: 0,9 m Oshxona: 1,2 m Zaxira yoritish: Avariya (evakuatsiya) yoritish: 220 V
Ta’mirlash yoritish: 24 V Avariya panellari (ЩАО) 1-qavatda, devor ichida, 1,5 m balandlikda. Himoya va yerga ulash: Barcha elektr jihozlar yerga ulanadi va nolga ulanadi (3 va 5 yadroli kabellar orqali). Himoya va ishga tushirish qurilmalari elektr jihozlari bilan birga yetkaziladi.
4.3. Isitish va shamollatish.
Isitish uchun tashqi havo harorati -14°C, ichki havo harorati SHNQ 2.01.01-22 " iqlim va fizikgeologik ma'lumotlar va QMQ 2.01.18-2018 "Binolar va inshootlarni isitish, shamollatish va konditsiyalashtirish uchun energiya sarfi me’yorlari” ga muvofiq ishlab chiqilgan. Isitish tizimi uchun polipropilen quvurlar va yotqizish yopiq tarzda amalga oshiriladi. Issitish tizimi gorizontal ikki quvurli qabul qilingan. Tizim issiqlik xarorati 80-60°C hisoblangan.Issitish jihozi sifatida bimetal radiatorlar, issiqlik uzatilishi 175 Vt qabul qilingan. Issiqlik ta`minoti xonadonlar uchun ikki konturli 24 kvt qozonlar o`rnatish ko`zda tutilgan. Shamollatish tizimi xojatxona, yuvunish xonalari va oshxonalarda qurilishi ko`zda tutilgan kanallar orqali tabiy va mexanik usulda amalga oshirilgan va oshxona pechkalari ustida xovo chiqib ketish qurilmalari (Vityajka) ko`zda tutilgan.
4.4. Yong'in signalizatsiyasi.
Loyiha xavfsizlik va yong'in signalizatsiya tarmoqlarinio'rnatishni nazarda tutadi. Abonent tarmog'i KPSng(A) 2x2x0,75 ochiq simli va PVX kabel kanallarida olib boriladi va dahliz o't o'chirish stantsiyasida o'rnatilgan Pribor priyomno-kontrolnыy i upravleniya oxranna pojarnыy "RUBEJ" rusumli boshqaruv panellariga chiqariladi. Yong'in va o'g'irlik signalizatsiyasining elektr qabul qiluvchilarini elektr ta'minoti 3 - toifaga kiradi va bitta mustaqil quvvat manbalaridan amalgaoshiriladi. Asosiy quvvat 220V, 50Gts o'zgaruvchan tok bilan ta'minlanadi.
Ogohlantirish tarmog'i
Bu yong‘in yoki boshqa tabiiy ofat sodir bo‘lganda binodagi talabalar, o‘qituvchilar va rahbariyatni ogohlantirish, shuningdek, dars boshlanishi va tugashini e’lon qilganda xabarlar, musiqa va qo‘ng‘iroq chalishlari uchun mo‘ljallangan.
Ogohlantirish tarmog'i 2 zonaga bo'lingan.
1-Zona: Xizmat binolari - xabarlar va ogohlantirish signallari, radioeshittirish;
2-Zona: koridor zonasi - Eshittirish xabarlari va ogohlantirish signallari, darslarning boshlanishi va tugashi haqidagi qo'ng'iroqlar; B
inodagi detektorlar sifatida 6 Vt quvvatga ega ship detektorlaridan (karnaylardan) foydalaning

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasining 2024-yil 19-dekabrdagi 161886512-sonli Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining xulosasi.
5.2. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Toshkent shahar elektr tarmoqlari” MChJning 2025-yil 20-maydagi 2629043383-sonli texnik sharti.
5.3. “Toshkent shahar suv ta’minoti” AJining 2025-yil 20-maydagi 270/4-1576-sonli texnik sharti.
5.4. “Hududgaz Poytaxt” Gaz ta’minoti filialining 2025-yil 23-maydagi 41-02-11-1188-sonli ruxsatnomasi.

5.5. “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” Toshkent shahar filialining 2025-yil 28-martdagi 01-02/14-5175-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.6. Loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **79 423 393 548** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

5 374 129 626 so'mga kamaytirilib, **74 049 263 922** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **62 653 120 781** so'm

Asbob-uskunalar: **3 462 293 435** so'm

QQS: **7 933 849 706** so'm

6.1. Loyiha hujjatlari ekspertiza ko’rigiga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida soxa ekspertlari xulosasi izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan qabul qilinib, loyiha hujjatlariga tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.

6.3. Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida shartnoma tuzishga asos bo‘la olmaydi.

6.4. Buyurtmachi import qilinadigan asbob-uskunalarni sotib olishda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g' risida"gi Qonuniga amal qilishi kerak.

6.5. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugaganidan so‘ng nazorat o‘lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.6. Loyiha tashkiloti Buyurtmachiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan taklif va e’tirozlar yuzasidan qabul qilingan ko‘rsatmalar asosida (loyiha tashkiloti tomonidan) loyiha-smeta hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlarni kiritgan holda taqdim etishi kerak. Loyiha tashkiloti berilgan javoblar uchun mas’ul va javobgardirlar.

6.7. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi 579-sonli qarorining III-bob 29-bandiga, ShNQ 1.03.06-13, II bob, 8-bandi muvofiq «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining to‘liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachiga va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiqaruvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Toshkent shahar Yashnaobod tumani Farg‘ona yo‘li ko‘chasi 15-uy o‘z yer uchastkasida yer osti avtoturargohi, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi bo‘lgan ko‘p xonadonli turar joy binolarini qurish” obyektining loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko’rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Abdunazarov Vaxobiddin Tursunboyevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Nazarov Bobur Baxodir O‘g‘li, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Abdullayeva Nodira Mirzanazarovna, Mirzayev Zafar G‘ulom O‘g‘li, Niyazov Alisher Maxmudovich, Ibragimov Ismoil Xabibullayevich, Yo‘ldoshaliyev Jahongir Dilshod O‘g‘li, Djurayev Sherali Axmatjanovich